

**O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN LAW
REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 19-martda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 12,3.
Adadi: 100. Buyurtma: № 43.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY‘ATI**BOSH MUHARRIR**

S. Gulyamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

S. Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

J. Peeroo – Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

B. Musayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar nomzodi

D. Habibullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

S. Bozorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O. Xazratqulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

D. Suyunova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

D. Maxkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori

D. Babadjanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar doktori

A. Matmurotov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

E. Rahmatov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M. Turdialiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию

19.03.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12,3. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 43.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного

юридического университета.

100047, г. Ташкент,

ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор

О. Окюлов – профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Энер – доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права

М. Бунгенберг – директор Европейского института Саарского университета, доктор права

С. Татар – профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права

Ж. Пироо – профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права

Б. Мусаев – декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ш. Сайдуллаев – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Хабибуллаев – заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

С. Бозоров – профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук

И. Беков – заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

В. Эргашев – заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Ш. Джолдасова – ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

О. Хазраткулов – заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Суюнова – профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Д. Махкамов – декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Д. Бабаджанова – и.о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Матмуротов – доцент сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Э. Рахматов – декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент

М. Турдиалиев – заместитель заведующего сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan Law Review" scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
Y. Yarmolik,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the
Printing

house on 19.03.2026.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 12,3.

Units: 100. Order: № 43.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief

Sh. Khujaev – Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Okyulov – Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

S. Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law

J. Peeroo – Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law

B. Musaev – Dean of the Faculty of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Sh. Saydullaev – Professor of the Department of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

S. Bozorov – Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

D. Mahkamov – Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

D. Babadjanova – Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Matmurotov – Associate Professor of the the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

E. Rahmatov – Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

M. Turdialiyev – Deputy Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **XAYDAROVA MARJONA OLIM QIZI**
Davlat huquqiy siyosatining asosiy prinsiplari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

17 **ABDUQODIROV ABDURAUF BAXODIR O'G'LI**
Yevropa Ittifoqi doirasida yuridik shaxsning davlatga mansubligini aniqlash muammolari
26 **ZIYAMOV BOBURXON BAXTIYOR O'G'LI**
Diplomatiyada sun'iy intellekt: huquqiy va etik asoslar hamda xalqaro tartibga solish istiqbollari
34 **KOKANBAYEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**
Subyektiv raqamli huquqlar tizimida insonning qaror qabul qilish huquqi

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

45 **SOLIYEVA KAMOLA RUSTAMJON QIZI**
Meros huquqiy munosabatlarida merosxo'rlarni aniqlash bilan bog'liq muammolar
56 **ODILOVA SITORA BOBIR QIZI**
O'zbekiston qonunchiligida protsessual muddatlar bilan bog'liq huquqiy muammolarni bartaraf etish

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI

68 **PO'LATOV MIRZOHI QO'ZIMURODOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lashning huquqiy asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

81 **ALLOBERDIYEVA DURDONA O'KTAMJON QIZI**
Kurort yerlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

89 **NURITDINOV JAMSHIDXON MAMUTXONOVICH**
Sud-ekspertlik sohasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM QIZI**
O'zbekiston qonunchiligini ekstraditsiya bo'yicha xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

108 **ABDIYEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
Raqamli transformatsiya sharoitida raqamli tafovut ayollar huquqlarini amalga oshirishga tahdid sifatida: xalqaro-huquqiy va milliy tahlil

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

- 8 **ХАЙДАРОВА МАРЖОНА ОЛИМ КИЗИ**
Основные принципы государственной правовой политики

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 17 **АБДУКОДИРОВ АБДУРАУФ БАХОДИР УГЛИ**
Проблемы определения государственной принадлежности юридического лица в рамках Европейского союза
- 26 **ЗИЯМОВ БОБУРХОН БАХТИЁР УГЛИ**
Искусственный интеллект в дипломатии: правовые и этические рамки и перспективы международного регулирования
- 34 **КОКАНБАЕВА МАДИНА ШУКУРБЕКОВНА**
Право на человеческое решение в системе субъективных цифровых прав

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 45 **СОЛИЕВА КАМОЛА РУСТАМЖОН КИЗИ**
Проблемы определения наследников в наследственных правоотношениях
- 56 **ОДИЛОВА СИТОРА БОБИР КИЗИ**
Устранение правовых проблем, связанных с процессуальными сроками в законодательстве Узбекистана

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 68 **ПУЛАТОВ МИРЗОХИД КУЗИМУРДОВИЧ**
Правовые основы оплаты труда педагогических работников высших образовательных организаций

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 81 **АЛЛОБЕРДИЕВА ДУРДОНА УКТАМЖОН КИЗИ**
Правовые аспекты использования и охраны земель курортных территорий

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ
ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

- 89 **НУРИТДИНОВ ЖАМШИДХОН МАМУТХОНОВИЧ**
Цифровизация и использование современных технологий в судебно-экспертной сфере
- 97 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Возможности гармонизации законодательства Узбекистана с международными стандартами экстрадиции

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 108 **АБДИЕВА КАМОЛА КОМИЛЖОНОВНА**
Цифровой разрыв как вызов реализации прав женщин в условиях цифровой трансформации: международно-правовой и национальный анализ

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

- 8 **KHAYDAROVA MARJONA OLIM KIZI**
Basic principles of state legal policy

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **ABDUKODIROV ABDURAUUF BAKHODIR UGLI**
Problems of determining the state belonging of a legal entity within the framework of the European Union
- 26 **ZIYAMOV BOBURKHON BAKHTIYOR UGLI**
Artificial intelligence in diplomacy: legal and ethical framework and prospects of international regulation
- 34 **KOKANBAEVA MADINA SHUKURBEKOVNA**
The right to a human to make decisions in the system of subjective digital rights

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 45 **SOLIEVA KAMOLA RUSTAMJON KIZI**
Problems related to the determination of inheritors in inheritance legal relations
- 56 **ODILOVA SITORA BOBIR KIZI**
Elimination of legal problems related to procedural terms in the legislation of Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 68 **PULATOV MIRZOHID KUZIMURODOVICH**
Legal basis for remuneration of pedagogical staff of higher education institutions

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 81 **ALLOBERDIEVA DURDONA UKTAMJON KIZI**
Legal aspects of use and protection of resort lands

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 89 **NURITDINOV JAMSHIDKHON MAMUTKHONOVICH**
Digitalization and use of modern technologies in the forensic sector
- 97 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM KIZI**
Possibilities for harmonizing Uzbekistan's legislation with international extradition standards

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 108 **ABDIEVA KAMOLA KOMILJONOVNA**
The digital space as a challenges to the realization of women's rights in the context of digital transformation: international legal and national analysis

Kelib tushgan / Получено / Received: 12.02.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.03.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 19.03.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.1./UHCB3454>

UDC: 347.948(045)(575.1)

SUD-EKSPERTLIK SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nuritdinov Jamshidxon Mamutxonovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-1720-2540>

e-mail: nurjam40@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida sud ekspertlik faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari, sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari hamda amaliyotdagi asosiy muammolarning ilmiy tahlili keltirilgan. Xorijiy davlatlarda sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish huquqiy tizimlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi hamda odil sudlov samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ko'rilmogda. Bu an'anaviy qog'oz aylanmasidan elektron axborot tizimlariga o'tishni nazarda tutadi va muhim o'zgarishlarga olib keladi. Muallif sud-ekspertlik tizimining global tendensiyalar bilan uyg'unlikda rivojlanishi va faoliyatni raqamlashtirish odil sudlov samaradorligini oshirishning muhim omili ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Tadqiqot yakunida mazkur yo'nalishni yanada takomillashtirish uchun o'z takliflarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, sun'iy intellekt, raqamli dalillar, elektron ma'lumotlar bazalari, "E-ekspertiza" elektron platformasi, raqamli kriminalistika, elektron ekspertiza, institutsional islohotlar

ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СУДЕБНО-ЭКСПЕРТНОЙ СФЕРЕ

Нуритдинов Жамшидхон Мамутхонович,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье представлен научный анализ реформ, направленных на модернизацию судебно-экспертной деятельности в Республике Узбекистан, их правовых основ, процессов цифровизации судебно-экспертной деятельности, а также основных проблем, возникающих на практике. В зарубежных государствах цифровизация судебно-экспертной деятельности рассматривается как одно из приоритетных направлений развития правовых систем и важный фактор повышения эффективности правосудия. Данный процесс предполагает переход от традиционного бумажного документооборота к электронным информационным системам и приводит к существенным изменениям. Автор научно обосновывает, что развитие системы судебной экспертизы в соответствии с глобальными тенденциями и цифровизация данной деятельности являются важными факторами повышения эффективности правосудия. По

итогам исследования автор выдвигает ряд предложений по дальнейшему совершенствованию данного направления.

Ключевые слова: цифровизация, искусственный интеллект, цифровые доказательства, электронные базы данных, электронная платформа «E-ekspertiza», цифровая криминалистика, электронная экспертиза, институциональные реформы

DIGITALIZATION AND USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE FORENSIC SECTOR

Nuritdinov Jamshidkhon Mamutkhonovich,
Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article presents a scientific analysis of reforms aimed at modernizing forensic activities in the Republic of Uzbekistan, their legal basis, the processes of digitalization of forensic activities, and the main problems in practice. In foreign countries, the digitalization of forensic activities is considered a priority area for the development of legal systems and an important factor in increasing the effectiveness of justice. This implies a transition from traditional paper circulation to electronic information systems and will lead to significant changes. The author scientifically substantiates that the development of the forensic expert system in harmony with global trends and the digitalization of activities is an important factor in increasing the effectiveness of justice. At the end of the study, he put forward his proposals for further improvement of this area.*

Keywords: *digitalization, artificial intelligence, digital evidence, electronic databases, “E-expertise” electronic platform, digital forensics, electronic expertise, institutional reforms*

Kirish

Hozirgi global raqamlashuv sharoitida sud-ekspertlik sohasi ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali tubdan yangilanmoqda. Sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish deganda ekspertiza tayinlash, o'tkazish, natijalarni rasmiylashtirish, saqlash va almashish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan tizimli foydalanish tushuniladi (Abdurahmonov, 2021).

Ilmiy nuqtayi nazardan raqamlashtirish sud-ekspertlik faoliyatining shaffofligini, tezkorligini, aniqligini, dalillarning buzilmasligini, inson omili ta'sirini kamaytirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, raqamli dalillar, elektron ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan tahlil vositalari ekspert xulosalarining ilmiy darajasini oshiradi (Casey, 2018).

Sud-ekspertlik sohasida raqamlashtirish, avvalo, an'anaviy qog'oz aylanmasidan elektron axborot tizimlariga o'tishni nazarda tutadi. Bu esa quyidagi muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi:

birinchidan, ekspert xulosalarini elektron shaklda tayyorlash va saqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hujjatlarni yo'qotish, soxtalashtirish yoki o'zgartirish xavfini kamaytiradi;

ikkinchidan, elektron ma'lumotlar bazalari orqali oldin o'tkazilgan ekspertizalar natijalaridan qayta foydalanish, qiyosiy tahlil o'tkazish imkoni kengayadi;

uchinchidan, avtomatlashtirilgan tahlil vositalari (*masalan, biometrik tahlil, raqamli trasologiya, DNK ma'lumotlar bazalari*) ekspertizaning ilmiy darajasini oshiradi;

to'rtinchidan, sud-ekspertlik jarayonlarini raqamlashtirish sud, tergov va ekspertlik muassasalari o'rtasidagi axborot almashinuvini optimallashtiradi;

beshinchidan, sud ekspertizalarini o'tkazishga sarflanadigan vaqtni keskin qisqartiradi, sud ekspertiza xulosalarini rasmiylashtirishda ortiqcha qog'ozbozlik, pochta xarajatlari va byurokratik holatlarga barham beradi.

Xorijiy davlatlarda sud-ekspertlik faoliyatining raqamlashtirilishiga huquqiy tizimlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan hamda odil sudlov samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur jarayon "elektron dalillar"ni yig'ish, saqlash, tahlil va sudga qabul qilinishi uchun tayyorlashga zarur texnologiyalar hamda metodologiyalarni joriy etish bilan bog'liq.

Sud-ekspertlik sohasini raqamlashtirish qonunchilik, institutsional tizim va texnik standartlarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilgan taqdirdagina samara beradi (United Nations Office on Drugs and Crime, 2020). Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sud-ekspertlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish, avvalo, inson huquqlarini himoya qilish va protsessual kafolatlarni ta'minlash tamoyillariga asoslanadi (Council of Europe, 2019).

Yevropaning ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, qonun bilan belgilangan standartlar vositasida elektron dalillarini yig'ish va saqlash maqsadida texnik yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, ISO/IEC 27041 va ISO/IEC 27042 standartlarining amaliyotga joriy etilishi Yevropa mamlakatlarida raqamli ekspertizalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda (International Organization for Standardization, 2015b).

Elektron dalillar bilan ishlashda umumiy qonunchilik asoslarini yaratish va yanada muvofiq standartlar ishlab chiqish, sud va tergov organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi va elektron dalillarning to'g'ri saqlanishi bo'yicha qoidalarni tuzish, elektron dalillar bilan ishlashda inson huquqlarini himoya qilish kabi jihatlar Yevropa Ittifoqi davlatlarining muhim tamoyillari sifatida shakllangan.

AQSH sud-ekspertlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSHda elektron dalillar bilan ishlash amaliyoti, asosan sud pretsedentlari va maxsus ilmiy-texnik standartlar asosida shakllangan (Carrier, 2019).

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari ekspert faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida keng qo'llanmoqda.

Osiyo mamlakatlarida raqamli texnologiyalardan sud-ekspertiza sohasida foydalanish darajasi mamlakatlar bo'yicha farq qiladi. Yaponiya va Janubiy Koreya kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda raqamli ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan ekspertizalar jarayonlari ilg'or darajada shakllangan.

Osiyo tajribasining asosiy xususiyatlari davlat tomonidan markazlashtirilgan raqamli ekspertiza platformalarining mavjudligi, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan keng foydalanish hamda ekspert faoliyatini avtomatlashtirish orqali ekspertiza muddatlarini qisqartirishda namoyon bo'ladi (Japan National Police Agency, 2020).

Mazkur tajriba sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirishda texnologik innovatsiyalarga ustuvor ahamiyat berilishini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda sud-ekspertlik faoliyati raqamlashtirish asosida tashkil etilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida elektron ekspertiza platformalari, AQSHda raqamli dalillar bilan ishlashning yagona standartlari, Janubiy Koreya va Yaponiyada sun'iy intellektga asoslangan kriminalistik tahlil tizimlari keng qo'llanmoqda. Ushbu xalqaro tajribalar sud-ekspertlik faoliyatida inson omili ta'sirini

minimallashtirish, xatolar ehtimolini kamaytirish va sud qarorlarining sifatini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, raqamli kriminalistika va elektron ekspertiza sohalarida ISO/IEC standartlarining joriy etilishi ekspert tadqiqotlarining xalqaro darajada tan olinishiga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy sud-ekspertlik tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda sud-huquq tizimini isloh qilish doirasida sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur jarayon ekspertiza tayinlash, o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish quyidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Republic of Uzbekistan, 2023), "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni (Republic of Uzbekistan, 2010), "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni (Republic of Uzbekistan, 2015) hamda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni (Republic of Uzbekistan, 2003), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud-huquq tizimini raqamlashtirishga qaratilgan farmon va qarorlariga tayanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-270-son qarorida sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali tadqiqotlarning tezkorligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash hamda sud-ekspertiza tashkilotlari va ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali sohada elektron hujjatlar almashinuvi hajmini 100 foizga yetkazish nazarda tutilgan (President of Uzbekistan, 2025).

Ushbu qarorda davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish vazifalari belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususan, quyidagi yo'nalishlarda muayyan yutuqlarga erishilgan:

- ekspertiza tayinlash va yuborish jarayonlarini raqamlashtirish. Tergov va sud organlari tomonidan ekspertiza materiallarini elektron shaklda yuborish amaliyoti joriy etilmoqda. Bu jarayon hujjat aylanmasini qisqartirish va vaqt tejalishiga xizmat qiladi;

- ekspert xulosalarini elektron shaklda tayyorlash va arxivlash. Ekspert xulosalarini raqamli formatda saqlash ularning yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlaydi;

- maxsus ma'lumotlar bazalaridan foydalanish. Ayrim ekspertiza turlarida (*masalan, trasologik, ballistik, biologik ekspertizalarda*) ma'lumotlar bazalaridan qiyosiy tahlil uchun foydalanishga yo'lga qo'yilgan;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ekspertlar faoliyatini tashkil etish. Masofaviy maslahatlashuvlar, elektron hisobotlar va ichki axborot tizimlari sud-ekspertlik muassasalari faoliyatida qo'llanmoqda.

Shu bilan birga, sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, barcha ekspertlar raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha yetarli malakaga ega emas. Ayrim ekspertiza turlarida raqamli vositalardan foydalanish tartibi aniq reglament qilinmagan.

Sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirishning keyingi bosqichi uni tizimli, integratsiyalashgan va huquqiy jihatdan mukammal mexanizm sifatida shakllantirishni

talab etadi. Bu jarayon faqat texnik yangilanish bilan cheklanib qolmasdan, huquqiy, institutsional va kadrlar tayyorlash sohalarida ham kompleks islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta'kidlash lozimki, sud-ekspertlik sohasini raqamlashtirishda eng muhim vazifalardan biri – yagona integratsiyalashgan raqamli axborot platformasini yaratish hisoblanadi. Bunday platforma sud, tergov va ekspertiza muassasalarini yagona elektron makonda birlashtirishi kerak.

Yagona platforma ekspertiza tayinlash va qabul qilishni elektron shaklda amalga oshirish, ekspertiza materiallarini elektron tarzda yuborish va qabul qilish, ekspert xulosalarini raqamli imzo orqali tasdiqlash, ekspertiza natijalarini elektron arxivda saqlash, statistik tahlil va monitoringni amalga oshirish kabi funksiyalarni bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan PQ-270-sonli qarorga asosan hozirgi kunda respublikamizning sud, tergov va ekspertiza muassasalari o'rtasida mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi "E-ekspertiza" elektron platformasi ishlab chiqilib, barcha idoralar o'rtasida integratsiya qilish hamda 2026-yil mobaynida bosqichma-bosqich hujjatlar almashinuvini raqamlashtirish tizimi joriy etilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti sud-ekspertlik faoliyatida sun'iy intellekt (SI) elementlarini joriy etish imkoniyatini yaratmoqda. Bunda sun'iy intellekt ekspert qarorini to'liq almashtirmasdan, uning yordamchi vositasi sifatida qo'llanishi lozim.

Sud-ekspertlik faoliyatida sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, qiyosiy ekspertizalarda namuna va izlarni tezkor solishtirish, ekspertiza xatolari ehtimolini kamaytirish, takroriy ekspertizalarni aniqlash kabi muhim yo'nalishlarda qo'llanishi maqsadga muvofiq (Carrier, 2019).

Shuningdek, sud-ekspertlik muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, xususan, kriminalistik tahlillarda avtomatlashtirilgan baholash usullarini qo'llash ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchligini oshirishi mumkin (Mirzayev & Abdullayev, 2020).

So'nggi yillarda aksariyat davlatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham kiberjinoyatchiliklar soni va ularni amalga oshirishi usullari ortib bormoqda. 2024-yil davomida jami sodir etilgan jinoyatlarning 42 foizini kiberjinoyatchilik tashkil qilgan.

Hozirgi zamonaviy davrda jinoyatlarning murakkablashuvi, axborot hajmining ortib borishi va texnologik taraqqiyot sohaga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Jumladan, turli yangi gadjetlar, sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalariga ildam kirib kelmoqda, bu esa nafaqat insonlar hayotining yaxshilanishi va taraqqiyotga xizmat qiladi, balki texnologiyalar vositasida sodir etiladigan yangidan yangi jinoyat turlari paydo bo'lishiga ham olib keladi.

Misol uchun, kriminalistika, sud-tibbiy ekspertiza, moliyaviy va kompyuter ekspertizalari sohalarida raqamli texnologiyalar, ayniqsa, *Deepfake* hujjatlar orqali tahdidlar ko'payib bormoqda. *Deepfake* sun'iy intellekt (AI) va chuqur o'rganish (*deep learning*) texnologiyalari yordamida yaratilgan soxta foto, videoyozuv yoki audiomateriallardir.

2024-yilda sun'iy intellekt yordamidagi hujumlar misli ko'rilmagan darajada ko'paygan, "Entrust" (kiberxavfsizlik va identifikatsiya yechimlari bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro kompaniya) kompaniyasining 2025-yilgi hisobotida keltirilishicha, 2024-yilda deyarli har 5 daqiqada 1 ta *deepfake* hujumi sodir bo'lgan. 2025-yilning o'zida raqamli hujjatlarni qalbakilashtirish holatlari avvalgi yilga nisbatan 244 foizga oshgan.

Ushbu holat o'z navbatida sohada faoliyat yuritayotgan ekspertlarning ish yuklamasi ortishiga hamda bu orqali ayrim holatda ishlarni ko'rib chiqish muddatlari uzayishi sababli, sud-tergov organlarining e'tirozlariga olib kelmoqda.

Xorijiy davlatlarda sud ekspertiza sohasida tadqiqotlarni o'tkazishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda boshqa sohalarda ham sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, xususan "SMART SUD" konsepsiyasi asosida sud jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini tezlashtirish va sun'iy intellekt orqali qarorlarni asoslash imkoniyatlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"da davlat organlari va xo'jalik birlashmalari, oliy ta'lim muassasalarini sun'iy intellektni amaliyotda qo'llash uchun zarur texnik uskunalar bilan ta'minlash orqali tegishli infratuzilma yaratishni amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa sohani yanada rivojlantirish, sud-tergov organlari faoliyatiga yaqindan va tezkorlikda yordam berish maqsadida sud-ekspertiza sohasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan bosqichma-bosqich foydalanishni yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda xorijiy davlatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy maqomi va ularni qo'llash, shu jumladan, o'tkazilgan sud-ekspertiza va kriminalistikaga doir tadqiqotlarning sud va tergov faoliyatida qo'llanishiga oid qoidalar belgilanmoqda.

Ma'lumot uchun, sun'iy intellekt bo'yicha uyg'unlashtirilgan qoidalarni belgilovchi "Sun'iy intellekt" qonuni Yevropa Parlamenti va Kengashining 2024-yil 13-iyundagi 2024/1689-son reglamenti (European Parliament & Council of the European Union, 2024) bilan tasdiqlangan.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasida ham sun'iy intellektning qonuniy asoslarini belgilashga doir harakatlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda mazkur yo'nalishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining sud-ekspertlik faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy qilish;
2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda sud ekspertlari tomonidan sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma hamda etika qoidalarini ishlab chiqish;
3. Tadqiqotlarni o'tkazishda sud ekspertlari va xodimlarning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish.

Bundan tashqari, sud ekspertizasi sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri 3D modellashtirishni keng qo'llash hisoblanadi. 3D modellashtirish voqea joyini virtual reallik orqali keyinchalik idrok etish uchun skanerlashda ishlatiladi. Bu sud-avtotexnik, sud-ballistik, trasologik, sud-qurilish, sud-portret va sud-tibbiy ekspertizalarini o'tkazish uchun ko'plab xorij davlatlarda, jumladan, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Belarus, Xitoy, Germaniya, Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSHda qo'llab kelinmoqda. 3D modellashtirish ekspertiza tadqiqotlari obyektlariga zarar yetkazmasdan o'rganish imkonini beradi. Ayniqsa, sud-qurilish-texnik ekspertizasi doirasida ushbu texnologiya yordamida obyekt loyihasi va boshqa texnik hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda ham yuqori sifatli ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish mumkin.

Sud-ekspertlik sohasini raqamlashtirishda axborot xavfsizligi masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim. Ekspertiza materiallari, ekspert xulosalari va shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot hisoblanadi va ularning muhofazasi qonunchilik darajasida ta'minlanishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli ma'lumotlarni kriptografik himoya qilish, elektron imzo va identifikatsiya tizimlaridan foydalanish, ma'lumotlarga kirish huquqini qat'iy reglamentlash hamda raqamli dalillarni saqlashda xalqaro standartlarga mos talablarni joriy etish kabi choralarni ko'rish muhim hisoblanadi. O'z navbatida, axborot xavfsizligini ta'minlash sud-ekspertlik faoliyatining ishonchliligi va qonuniyligini kafolatlaydi.

Ma'lumot almashinuvi uchun yagona elektron platforma yaratish, ekspertiza xulosalarining shaffofligi va ishonchliligini kuchaytirish, xalqaro standartlarga mos axborot xavfsizligini ta'minlash sud qarorlarining adolatli va tezkor bo'lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy moddiy-texnik baza, yetarli resurslar va malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilayotgan islohotlar sud-ekspertlik tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga, natijada fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. Abdurahmonov, I. I. (2021). *Sud-ekspertlik faoliyatida zamonaviy texnologiyalar [Modern technologies in forensic activities]* (pp. 112–130). Tashkent.
2. Carrier, B. (2019). *Digital forensics investigation process* (pp. 56–78, 143–160). Elsevier.
3. Casey, E. (2018). *Digital evidence and computer crime* (pp. 95–124, 201–220). Academic Press.
4. Council of Europe. (2019). *Guidelines of the Committee of Ministers of the Council of Europe on electronic evidence in civil and administrative proceedings and explanatory memorandum*. Council of Europe Publishing.
5. European Parliament & Council of the European Union. (2024). *Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act)*. <https://ai-act-law.eu>
6. International Organization for Standardization. (2015a). *Information technology — Security techniques — Guidance on assuring suitability and adequacy of incident investigation method (ISO/IEC Standard No. 27041:2015)*. <https://www.iso.org/standard/44405.html>
7. International Organization for Standardization. (2015b). *Information technology — Security techniques — Guidelines for the analysis and interpretation of digital evidence (ISO/IEC Standard No. 27042:2015)*. <https://www.iso.org/standard/44406.html>
8. Japan National Police Agency. (2020). *Digital forensics reports* (pp. 22–45). National Police Agency.
9. Mirzayev, A., & Abdullayev, D. (2020). Sud-ekspertlik xulosalarining qonuniyligi va ishonchliligini oshirish mexanizmlari [Mechanisms for increasing the legality and reliability of forensic expert conclusions]. *Scientific Application of Jurisprudence*, (1), 12–21.
10. President of Uzbekistan. (2025). *Presidential Decree No. RP-270 "On measures for further improving forensic expert activity and the wide introduction of modern technologies into the sphere"*. <https://lex.uz/uz/docs/7717938>

11. Republic of Uzbekistan. (2003). *Law "On informatization"*. <https://lex.uz/uz/docs/83472>
12. Republic of Uzbekistan. (2010). *Law "On the forensic examination"*. <https://lex.uz/uz/docs/1633102>
13. Republic of Uzbekistan. (2015). *Law "On the electronic government"*. <https://lex.uz/uz/docs/2833860>
14. Republic of Uzbekistan. (2023). *The Constitution of the Republic of Uzbekistan*. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
15. United Nations Office on Drugs and Crime. (2020). *Handbook on digital forensics* (pp. 33–58, 101–120). United Nations.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.